

Ona yurti - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI
INV. 36

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi,
«KAMOLAT» Yoshlar
ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» hukumatga qarashli
bo'lmagan xalqaro xayriya
jamg'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil 6 - 12 - noyabr N:45 (66586)

—Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanida Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 66ta umumiy o'rta ta'lim maktablari, 9ta bog'cha, maktab, 7ta ixtisoslashgan maktab, 4ta maktabdan tashqari va 15ta maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularda o'qiyotgan 28000ga yaqin o'g'il-qizlari-mizga 2500dan ortiq tarbiyachi va pedagoglar ta'lim-tarbiya berib kelmoqdalar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 59tasida o'qish o'zbek, 2tasida qoraqalpoq, 4tasida qozoq, 1tasida turkman, 1tasida o'zbek va turkman tillarida olib boriladi.

Maktablarda, maktabgacha va maktabdan tashqari



«Toza Amirobod» xo'jaliklari hududlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ixtisoslashgan maktablarga 5-sinfidan boshlab tanlov asosida o'quvchilar qabul qilinadi. Mavjud 7ta ixtisoslashgan maktablarimizda 125 nafar oliy ma'lumotli o'qituvchilar 1475 nafar o'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya berib kelmoqdalar. O'quvchilarimizning respublika miqyosida o'tkazilib kelinayotgan har xil ko'rik-tanlovlar hamda anjumanlarda erishayotgan natijalari ham salmoqli bo'lmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida tashkil qilingan «Umid nihollari» sport

BUGUNGI GAZETXON — ERTANGI KITOBXON

o'quv-tarbiya muassasalarida ta'limni tashkil qilishda barcha imkoniyatlardan foydalanilgan holda o'quvchi uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 17tasida kompyuter sinflari, 27tasida lingafon xonalari mavjud bo'lib, ular malakali pedagog mutaxassislar bilan ta'minlangan. Shu bilan birga tumanimizning 40ta maktabida 2-sinfidan boshlab o'zbek tili va adabiyoti, xorijiy tillar, matematika, fizika, kimyo, biologiya, tarix va geografiya fanlaridan chuqur bilim beradigan ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil qilinib, ularga 1000dan ziyod o'g'il-qizlar jalb qilingan.

O'quvchilarimiz o'rtasida o'tkazilib kelinayotgan fan olimpiadalarining hududiy bosqichida 5835 nafar o'g'il-qiz qatnashdi.

Olimpiadalarning Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichiga 62 nafar g'olib o'quvchimiz yo'llangan bo'lsa, ularning 13 nafari sovrinli o'rinlarni egallab qaytdilar. 11-sinf o'quvchilari orasida 1-o'rinni qo'lga kiritgan g'olib o'quvchimiz kimyo fanidan Respublika miqyosida o'tkazilgan yakuniy bosqichda ham ishtirok etadi.

Keyingi yillarda tuman miqyosida iqtidorli o'quvchilar tanlab olinib, ularga chuqurlashtirilgan o'quv dasturi asosida bilim berib kelinmoqda. Bu borada ixtisoslashgan maktablar tashkil qilinayotganligi yaxshi samara bermoqda. Bunday maktablar hozirgi kunda Bo'ston shahri, «Sarabbiy», G'ani Odilov nomli, «Qirg'izobod», Al-Xorazmiy, «Qilchinoq» va


Ustozga so'z

musobaqalari har yili yuqori saviyada o'tkazilib kelinmoqda. Tumanimiz vakillarining Respublika miqyosida erishayotgan natijalari ham yomon bo'lmayapti. Jumladan, 19ta maktab o'quvchilaridan iborat yengil atletika jamoasi Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida 1-o'rinni qo'lga kiritib, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahrida o'tkazilgan yakuniy bosqichida munosib ishtirok etishdi.

Maktablarimizda 612ta turli fan to'garaklari tashkil qilingan bo'lib, ulardan 1184 nafar, sport maktabi to'garaklarida 367 nafar, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarida 31ta to'garak bo'lib, unda 1298 nafar, ja'mi tuman bo'yicha 672ta to'garakda 12849 nafar o'quvchi shug'ullanmoqda. Bu tuman o'quvchilarining 40 foizdan ko'prog'ini tashkil qiladi.

Men yutuqlarimizni, istiqbol tufayli erishgan muvaffaqiyatlarimizni sanar ekanman, g'urur bilan o'quvchilarimiz bari gazetxon, degim keladi. Bugungi gazetxon — ertangi kitobxon. Shunday ekan, o'zim sevib o'qigan, «Tong yulduzi» — ong yulduzimizga har o'n o'quvchimizdan bittasini bir yilga obuna qilib berishga so'z beraman. Chunki «Tong yulduzi»ning «Chamanda gul» sahifasida Qoraqalpog'iston tilida ham ijodkor bolalarimiz uchun joy ajratilmoqda.

Farhod IBODULLAYEV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Ellikqal'a tumani Xalq
ta'limi bo'limi mudiri.



"INTERNET" DAN KIM NIMA O'RGANYAPTI?



Bugungi kunda internetdan foydalanish kundalik hayotimizdagi odatiy ehtiyojlardan biriga aylanib qoldi. Shahrimizdagi qaysi klubga kirmaylik, ko'plab turli yoshdagi qiziquvchilarni ko'rishimiz mumkin.

Ularining aksariyatini maktab o'quvchilari tashkil qiladi.

Bir kuni talabalar shaharchasidagi «NEMO-NET» nomli internet klubida yangiliklar

bilan tanishib o'tirsam, bir bolakay ish boshqaruvchiga, 100 so'mlik ulavoring, deya pul uzatdi. Boshqaruvchi uning gapiga e'tibor ham bermadi. Chorasiz qolgan bolakay yonidagi o'rtog'idan qarz oldi. Qarz hisobiga o'ynamoqchi bo'lgan o'yini nima ekan-a, deya qiziqdim. Ma'lum bo'lishicha, u kompyuter o'yinlarining shinavandasi ekan. Qiziq, bolakayning sevimli o'yini «Konter strayk» guruh bo'lib o'ynalar ekan. Undagi mushtlashuvlar, qon to'kishlar nafaqat bolalarning, balki kattalarning ongiga ham salbiy ta'sir qilishi aniq. Bunday o'yinlar maktab o'quvchilarining aqliy salohiyatini oshirishga emas, rahm-shafqat tuyg'ularini so'ndirishga xizmat qiladi, deb o'ylayman. Ota-onasining «ovqatlangin» deb berayotgan pulini misqolab yig'ib, hovuchlab klublarda sochadigan o'quvchilarning bu ishi to'g'rimikan?

Dilfuza XOLMATOVA,
O'zMU jurnalistika fakulteti, 3-bosqich talabasi.

Maktab yangiliklari



ishtirokchilari tomonidan yuqori baholandi. Fursatdan foydalanib, ishtirokchilardan ayrimlarini suhbatga tortdik:


Faxriddin SHAMSIDDINOV, Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 46-maktab direktori:

– «O'zbekiston» NMIU va «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyalari tomonidan namoyish etilayotgan barcha kitoblarning ta'lim standartlariga to'liq javob beradi. Jahon andozalariga mos, qog'ozlari sifatli, muqovalari did bilan ishlangan. Ulardan yillab foydalanishimiz mumkin.

Zulfiqor IBRAGIMOV, Mirzacho'l tumanidagi 10-maktab direktori:

– Maktabimizda 696 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ularning barchasi darsliklar bilan to'liq ta'minlangan. Boquvchisini yo'qotgan, kam ta'minlangan oilalarning

Toshkent shahrida boshlanib respublikamizning barcha viloyatlarida davom etadigan ko'rgazmada nashriyotlar tomonidan 300dan ziyod yangi darsliklar hamda o'quv mashg'ulotlariga qo'shimcha qo'llanma sifatida xizmat qiladigan 500dan ortiq ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy kitoblarning namoyish etildi. Ushbu ko'rgazmada – «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi 79 nomdagi, «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi 111 nomdagi, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi 105 nomdagi, «Ma'naviyat» nashriyoti 9 nomdagi, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti 11 nomdagi, «Talqin» nashriyoti 7 nomdagi, «Arnaprint» nashriyoti 26 nomdagi, «Turon-iqbol» nashriyoti 9 nomdagi, «G'afur G'ulom» nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 30 nomdagi, «Cho'lpon» nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 59 nomdagi, «Faylasuflar jamiyati» nashriyoti 4 nomdagi darsliklari bilan qatnashdilar. Ayniqsa, o'tgan o'quv yillar mobaynida maktab o'qituvchilari, ota-onalar, o'quvchilar va mutasaddi tashkilotlarning fikr-mulohazalari inobatga olingan holda zamon talabiga mos va dizayni yuqori bo'lgan o'zbek, rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman tillarida tayyorlangan darsliklar ko'rgazma



QULOV, Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumani, Xalq ta'limi bo'limi uslubxona mudiri:

– «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari», «Odobnoma» kabi darsliklarning mazmun-mohiyati o'quvchilarimizni juda qiziktirmoqda. Qadim qadriyatlarimizning tub ildizlarini o'rganishda ularning o'rni beqiyos. Ko'rgazmada namoyish etilayotgan kitoblarning barchasi kitobxon uchun suv bilan havodek zarur. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur, Furqat, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qahhor kabi buyuk adib va yozuvchilarimizning asarlari yuksak did bilan tayyorlangan.

Shahnoza QOSIMOVA, Shayxontohur tumanidagi 20-maktab direktori:

– Bolalar uchun nashr qilingan kitoblarning o'ziga xos bejirim bezaklarini ko'rib ko'zingiz quvnaydi. Darsliklar ham, badiiy adabiyotlar ham bizning talabimizga mos. Ularning xarid narxi ham talab darajasida.

Ha, millionlar emas, siz bolajonlarning puxta bilim olishingiz uchun bugungi kunda milliardlar sarflanib chop etilayotgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va badiiy adabiyotlarning barcha-barchasini albatta qunt bilan o'qib o'rganasiz. Ko'plab insonlarning mehnati singayotgan bebaho kitoblarni asrab-avaylab uka va singillaringizga ham bus-butun yetkazishingizga ishonamiz.

Jamila ERDONOVA.

Suratlar muallifi Vitaliy MYASNIKOV.

farzandlariga darsliklar bepul berildi. Bolajonlarimizga qilinayotgan bunday g'amxo'rliklardan barcha mamnun bo'lmoqda. Ko'rgazma haqida gapiradigan bo'lsam, bu yerda namoyish etilayotgan kitoblarning manaman degan chet el nashriyotlarida chop etilayotgan kitoblarning bilmalol bellasha oladi. Pishiq-puxta ishlangan, jahon andozalariga mos. Eng quvonarlisi, kitoblarni chetdan qimmat narxda emas, o'zimizdan xarid qilishimiz mumkin. Bu juda arzon va qulaydir.

Yulduzxon ABDURAHMONOVA, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahar Xalq ta'limi bo'limi uslubxona mudirasi:

– Ko'rgazmada namoyish etilayotgan darsliklar, qo'llanmalar, badiiy adabiyotlarning sifati juda yuqori. Zamon talabiga mos, ixcham, o'qimishli. Kitobxonning diqqatini tortadigan kitoblarning rang-barang bezaklari ko'rib, ko'zingiz quvnaydi.

Karomat XO'JAM-



Biz «Kamolot»ni qay darajada bilamiz? Harakatning vazifalari, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlaridan boxabarmizmi? Bu savollarga javob berish bir qaraganda juda ham mushkul emasdek tuyuladi. Ammo voqeaning boshqa tomoni ham bor. Bizning «Kamolot» haqida bilganlarimiz kundalik xabarlar-u voqealardan nariga o'tmaydi. Qolaversa, siz-u bizda Harakatning doimiy faoliyati, u tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarining salmog'i va samarasi haqida xabardor bo'lish imkoniyati ham doimo tug'ilavermaydi. Tan olish lozim, bizning barcha bilimlarimiz ma'lum bir tadbir yoki marosimlar tafsiloti bilangina cheklanadi. Va nihoyat, Harakat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlarda doimiy tarzda ishtirok etish ham o'ziga xos muammo ekanligini unutmash kerak.

Xullas, bizning Harakat faoliyati haqidagi axborotlarimiz yetarli darajada emas. Shunday ekan, uning faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritilishini qanday baholash mumkin?

«Kamolot»da 7 kun, deb nomlangan sahifa-mizda shu savollarga javob topasiz.



KAMOLOT» DA

SAMARALI FAOLIYAT MANBAI NIMADA?

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi qoshida tashkil etilgan «Yetakchi» yoshlar markazida navbatdagi o'quv-seminar bo'lib o'tdi. Seminarning birinchi kunida ishtirokchilar beshta guruhga bo'linishdi. Har bir guruh o'z yo'nalishidan kelib chiqib, Harakat dasturiga kiritiladigan o'zgarishlar uchun taklif va g'oyalar ishlab chiqishi shart edi. Ushbu takliflar seminarning yakunida barcha ishtirokchilar oldida izohlab berish ham talab qilindi.

Seminar ishtirokchilari o'zlariga ajratilgan vaqtni behuda sarflashmadi. Ular har bir yo'nalishda Harakatning Dasturidan o'rin olishga arziydigan g'oyalarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'lishdi. Seminar ishtirokchilari tomonidan o'rta tashlangan takliflar o'zining hayotiyiligi kelajakda Harakatning yoshlar orasidagi mavqeini mustahkamlashiga hissa qo'shishi asosiy talablardan edi. Shu sababli ham ishtirokchilar har bir taklif, g'oya atrofida jiddiy mulohaza qilib ko'rishdi.

Ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid takliflar ancha bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Bu yo'nalishda o'rta tashlangan takliflarning mualliflari yoshlarni bir joyga jamlash mumkin bo'lgan holatlarni ancha teran his qila olishgan.

Ular kiritgan iqtidorli yoshlar o'rtasida qisqa metrajli filmlar, video-roliklar hamda hujjatli filmlar ssenariysi tanlovini uyushtirish taklifi deyarli barchaga ma'qul bo'ldi. Bu tanlov asosan chekka qishloqlarda istiqomat qilayotgan yoshlarni qamrab olishga qaratilgan.

Ma'lumki, bugun Harakatning oldida turgan eng og'riqli masala bu – ma'lum sabablarga ko'ra ishlamayotgan, o'qimayotgan, boshqacha qilib aytganda, uyushmagan yoshlarni Harakat atrofiga jamlashdan iborat, desak adashmagan bo'lamiz. Shu sababli ham, ma'naviy, ma'rifiy sohada ilgari surilgan takliflarning aksariyatida aynan shu yoshlarni qamrab olishga harakat qilindi. «Iqtidorimiz, iste'dodimiz senga – Vatan» festivalini o'tkazish g'oyasini ilgari surish

barobarida ular ko'proq mahalla yoshlarining istak va muammolarini o'rganish lozimligini ta'kidlashdi.

Harakatning kelajakdagi faoliyatini yanada jonlantirish maqsadida «Oila – maktab – «Kamolot» konsepsiyasini ishlab chiqish taklifi ham o'rta tashlandi. Ushbu taklif oila, maktab va «Kamolot» o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Fikr fikrga doyalik qiladi, deydi donolar. Shu yerning o'zida ushbu g'oyani rivojlantirish va ushbu konsepsiyaga mahallani qo'shish taklifi ham o'rta tashlandi. Bu taklif Harakatning mahalladagi o'rini mustahkamlashi tabiiy. Bir vaqtning o'zida xuddi shunday yana bir taklif tug'ildi. Bugungi kunda maktablarda salkam o'n mingga yaqin «Bolalar yetakchilari» faoliyat ko'rsatadi. Ammo Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli bo'lgan bu yetakchilarning aksariyati maktab rahbariyatining «beminnat» kotibasiga aylanib qolgan. Mabodo bu yetakchilar o'z o'rnini va maoshi bilan Harakat tarkibiga o'tkazilsa, «Kamolot» qoshida katta

bir kuch to'planishi mumkin. Va aynan ushbu yetakchilar zimmasiga ham maktabda, ham mahallada faoliyat olib borish vazifalari yuklatilishi tabiiy.

Bu kabi takliflar deyarli har bir yo'nalish tomonidan o'rta tashlanadi. Siyosiy-ijtimoiy soha bo'yicha o'rta tashlangan takliflarning aksariyati yoshlarning manfaatlarini himoya qilish masalasiga qaratildi. G'oya mualliflari yoshlarning barcha manfaatlarini teran himoya

qilish taklifi bilan chiqishdi. Ularda yoshlarning pasport olishlaridan tortib, huquqiy bilimlarini boyitishgacha bo'lgan jarayonlar qamrab olingan. Jumladan, mahallalarda «Kamolot» huquqiy kutubxonasi tashkil etish, internetda huquqiy bilimlar, elektron kutubxonasini yaratish singari takliflar ilgari surilgan. Mualliflar ta'lim muassasalarida ta'lim sifati

va o'qituvchilarning bilim saviyasini o'rganish fikriga alohida to'xtalishdi. Zero, bu taklif bir paytning o'zida ta'lim muassasasi va Harakat o'rtasidagi munosabatni jonlantirish

bilan bir qatorda ushbu muassasalarda ta'lim olayotgan yoshlar orasida «Kamolot»ning mavqeini mustahkamlaydi.

Sport va jismoniy tarbiya sohasida ilgari surilgan takliflarning aksariyati yoshlar o'rtasida sport bilan shug'ullanish darajasini kengaytirishga qaratilgan. Sport mutaxassislarining monitoringi, sport inshootlarini, to'garaklarining ish jarayonini o'rganish va ularni doimo tahlil qilib borish kabi tadbirlarning muntazam o'tkazib borilishi sportchi yoshlarimiz ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

Darvoqe, shu kuni o'rta tashlangan takliflarning yana biri «ko'ngillilar markaz»ini tashkil etishga qaratildi. Markazning asosiy vazifasi tuman imkoniyatidan kelib chiqqan holda turli kurslar, to'garaklar tashkil etishdan iboratdir. Bunda turli mutaxassislar kelib, mashg'ulot o'tkazishadi. Faqat ularning mashg'uloti ko'ngilli, ixtiyoriy tarzda bo'lishi shart.

Xullas, «Yetakchi markazi»da o'tgan uch kun samarasiz ketmadi. Ishtirokchilar o'rta tashlangan takliflarning qay biri qabul qilinadi yoki rad etiladi, buni vaqt ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mualliflarning barchasi bevosita Harakat safida faoliyat olib borayotgan takliflar o'zlari oldin yo'l qo'ygan kamchiliklardan chiqarilgan xulosa sifatida baholanishi mumkin.



Qoraqalpog'iston Respublikasi:

«Kamolot» a'zosi hisoblangan har bir yoshga tashkilot ramzini ifodalovchi maxsus nishonlar joriy etish;

– Boshlang'ich tashkilotlar qoshida ochilgan klub, markaz va sport to'garaklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

– Fermer xo'jaliklari uyushmasida boshlang'ich tashkilot yetakchilarini tayinlash uchun lavozimlar ajratish;

– Volontyorlarni jalb qilgan holda ishsizlik masalalarini yechishda yoshlarni o'zlari qiziqqan sohalar bo'yicha kasbga yo'naltirish;

– Yangi ish o'rinlari ochilgan taqdirda, avvalo, ishsiz yurgan yoshlarni ish bilan ta'minlashda «Kamolot» tomonidan beriladigan tavsiyalarni ahamiyatini kuchaytirish;

– Ta'lim dasturiga «Kamolot» faoliyatini tushuntirish bo'yicha darsliklar kiritish;

– Yoshlarning yuridik statusga ega huquq va manfaatlarini himoya qilish markazlarini ochish;

– Harakat tashkil topgan kunni «Yoshlar kuni» deb e'lon qilish;

– «Kamalak bolalar tashkiloti»ga a'zolikka qabul qilish marosimlarida beriladigan qasamyodni bolalarga qulay tarzda qayta ishlab chiqish.

Toshkent viloyati:

– Harakatga a'zo bo'lish yoshini 14 yoshdan 30 yoshgacha qilib belgilash;

– Harakatga a'zo bo'lgan yigit-qizning a'zo ekanligini bildiruvchi ko'krak nishonini joriy etish;

– Harakat negizi hisoblanmish boshlang'ich tashkilotlarni mahallalarda tashkil etish.

TAKLIFLAR

Safar taassurotlari

SPORTDAN GAP OCHMANG...

-Ochdingizmi, endi qulog'in-gizga quvvat bersin. Chunki tumanimiz dong'ini viloyatga taratayotgan sportsevar bolajonlarimiz, ular uchun yaratilayotgan sharoitlar bilan ham maqtana olamiz,-deya so'z boshladi tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri Shahodat opa Homidova faxr bilan. -18ta maktabda sport zali, 117ta sport maydonchalari mavjud bo'lib, ular kerakli anjomlar bilan ta'minlangan. Bu maskanlarimiz qishin-yozin sportsevar bolajonlar bilan gavjum bo'ladi. Sportning voleybol, basketbol, futbol, qo'l to'pi, yengil atletika, kurash, stol tennisi, shaxmat turlari bilan 7536 nafar o'g'il-qiz muntazam shug'ullanib kelishadi. Yosh futbolchilarimiz Qiziltepa tumanida o'tkazilgan futbol musobaqasida qatnashib, III-o'rinni egallab qaytishdi. «Umid nihollari» sport musobaqasining Respublika bosqichida ishtirok etish uchun tumanimiz maktablaridan 9 nafar sportchining viloyat terma jamoasi tarkibiga tanlab olinishi ham hazil gap emas, albatta.



Shu maktabning oliy toifali nemis tili fani o'qituvchisi Muharram Husenovaning darslarini jon quloqlari bilan tinglayotgan mana bu o'quvchilar til o'rganishga astoydil bel bog'lashgan.

Karmana tumani Xalq ta'limi xodimlari mudira Shahodat opa Homidova boshchiligida kelgusi ishlarini rejalashtirib olishyapti.

Karmana tumanida 28ta umumta'lim maktablari hamda 2ta bolalar va o'smirlar sport maktablari faoliyat ko'rsatib kelyapti. Maktabgacha yoshdagi kichkintoylar esa 25ta maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiya topishyapti.

Ular orasida iqtidorli, iste'dodli o'g'il-qizlar juda ko'p. Gap faqat ularni izlab topish, rag'batlantirish, boshqa tengdoshlariga ham namuna qilishda qolgan. Shu maqsadda tumanda «Iqtidor va iste'dodning sehrli dunyosi» nomli festivalni o'tkazish yaxshi bir an'anaga aylanib qolgan. Yaqinda 11-maktabda bo'lib o'tgan ana shu anjumanning 2-festivalida tumandagi barcha iqtidorli o'quvchilar, tuman, viloyat, Respublika bosqichlari fan olimpiadalari g'oliblari munosib taqdirlandilar, hamkor tashkilotlarning esdalik sovg'alari bilan mukofotlandilar. Bunday yutuqlar zahirida o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar yotadi. Tumandagi maktablarning aksariyatida kompyuter sinflari faoliyat ko'rsatadi. 1-, 2-, 5-, 15-maktablar elektron pochtaga ulangan, 5-, 22-maktablarda masofadan o'qitish, 2-, 5-, 28-maktablar esa internet tarmog'iga ulangan.

Tumanda o'quvchilarning nafaqat ta'lim olishlari, balki tarbiyasi, huquqiy bilimlarini boyitishga, ma'naviyatini shakllantirishga ham jiddiy ahamiyat beriladi. Uyushqoqlik bilan o'tkazilgan 15 kunlik tadbir yoshlar orasida jinoyatchilik va terrorizmning oldini olish maqsadiga yo'naltirilgan bo'lsa, «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori», «Qonun ustuvorligi – jamiyat tayanchi», «Siz huquqingizni bilasizmi?» kabi tadbirlar bolajonlarning o'z huquq va burchlarini yanada yaxshiroq bilib olishlariga xizmat qiladi. «Navoiyni yod etib...», «Temur izdoshlari», «Bobur ijodini o'rganish biz uchun sharaf» kabi kecha va tadbirlarning ular ma'naviyatini yuksaltirishi, murg'ak qalblarida faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otishi tayin.

Bu go'shadagi san'atsevar bolajonlarning ko'pchiligini nafaqat tumandagi, balki viloyatdagi tengdoshlari ham yaxshi tanishadi. Chunki tumandagi 1-, 3-, 5-, 10-, 21-maktablarda tahsil olayotgan yosh san'at ixlosmandlari viloyat miqyosida o'tkazilgan «O'zbekiston qo'shiqlar bayrami» ko'rik-tanlovlariida ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritishdi. «Bolalar folklor dastalari» ko'rik-tanlovida qatnashgan 3-maktabning folklor dastasi a'zolariga esa 1-o'rin nasib etdi...

Bularning barini bizga tuman Xalq ta'limi bo'limi uslubchisi Dilbar opa AHMEDOVA so'zlab berdilar.



Tumandagi 15-maktabning tarix-huquq-shunoslik fani o'qituvchisi Sh.Zaymeriddinovning saboqlarini o'quvchilar bajon-u dil tinglashadi.

Aziz bolajonlar, go'zal va navqiron Navoiy viloyatining tarixiy obidalarga boy bo'lgan Karmana tumanida hech bo'lganmisiz? Qosim Shayx maqbarasini, Mir Said Bahrom, Dehgaroni, Sardoba obidalarini ko'rganmisiz? Bilimga chanqoq, izlanuvchan, intiluvchan bolalarining o'qishda va sportda erishayotgan yutuqlari haqida, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida-chi, eshitganmisiz?

Yo'q, deysizmi? Ibrat olsa arziqli shuncha ishlardan bexabar qolibsiz-da unda.

Ha mayli, hali ham kech emas, keling, bugun sizlarga karmanalik tengdoshlaringiz haqida qisqacha bo'lsa-da, gapirib beray:

KICHKINTOYLAR HAM BO'SH KELISHMAYDI...

Yuzlab kichkintoylarni o'z bag'riga jamlagan «Boychechak» nomli bolalar bog'chasi ham Karmanada joylashgan. O'nlab tarbiyachi va murabbiylar bolajonlarni sog'lom, har taraflama barkamol qilib tarbiyalash, ularning murg'ak qalblarida o'qishga intilish hissini uyg'otish, ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish uchun astoydil harakat qilishyapti. Tarbiyachi Risolat Zaripova boshchiligida tashkil etilgan qisqa muddatli shanba-yakshanbalik guruhda 8 nafar kichkintoy dastur asosida bilim olishyapti.

Bu maktabgacha tarbiya muassasasining tashkil topganiga hademay 40 yil bo'ladi. Unga Nasiba opa Rahmatovanning rahbarlik qilib kelayotganiga ham bu yil 15 yil bo'larkan. Shu davr mobaynida qanchadan-qancha tili burro va zukko o'g'il-qizlar maktab bag'riga uchirma bo'lishdi. Bog'cha opalaridan o'rgangan Qomusimiz haqidagi, mahallalari, tumanlari, ko'hna qo'rg'on tarixiga oid bilimlari, mustaqil

fikrlab, ularni erkin bayon eta olishlari, lotin alifbosidagi harflarni ko'zlarini yumib aytib berishlari bilan o'qituvchilarini ham lol qoldirishdi. Bog'cha qoshidagi raqs to'garagining jajji raqqosalari ijro etgan raqslar nafaqat bog'chada, balki tumanda o'tkaziladigan har qanday bayram va tantanaga fayz kiritishadi.

Bog'chada o'tkaziladigan barcha tadbir va kechalar juda jonli o'tadi, desak ishonavering.

Shundanmi, yaqinda bo'lib o'tgan «Hosil bayrami»da poliz mahsulotlari timsoliga kirgan bolajonlarni hatto onajon-u buvijonlari ham haqiqiylaridan farqlolmay qolishdi.

Biz bugun karmanalik tengdoshlaringiz hayoti haqida qisqagina hikoya qildik, xolos. Ular bilan yaqindan tanishishni, ko'proq narsalar bilishni xohlasangiz, mehmon bo'lib boring, boshlari ko'kka yetadi.



Suratdagi mana bu shirintoylar «Boychechak»ning tarbiyalanuvchilari. Abjir-u chaqqonlikda bir-birlaridan qolishmaydigan jajji sportchilar o'zaro bellashisha, g'oliblarni aniqlash ancha mushkul kechadi-da.

Do'stim Farhod doim uxlagani-uxlagan. Maktabdan kelib, tushlik qilib oladi-da, darrov uxlashga ravona bo'ladi. Qachon birga o'ynaymiz deb chaqirsam, uxlayotgan bo'ladi. Meni bo'lsa ko'proq futbol o'ynagim, varrak uchirgim yoki bo'lmasa kompyuterda shug'ullangim kelaveradi. Axir o'g'il bola biror narsa bilan mashg'ul bo'lishi lozim. Bir yigitga qirqta hunar ham oz, deb bejiz aytishmaydi-ku. Qiz bolaga o'xshab hadeb uydan chiqmaslik ham o'g'il bolaga yarashmaydi-da. Farhod bugun ham shuncha ko'p uxlagani bilan

Farhodni qidirishga keldi. Qayerlarda yuribdi-ya u uyquchi? Sinfdozlarini maktab hovlisida ko'rdim, lekin o'zini topolmadim. Keyingi darsga kirib ketayotsam, yonimizdagi sinfda uning tovushi eshitildi. Borib qaragam, bir bola bilan bahslashayotgan ekan. Unga buvisi berib yuborgan narsani bermiqchi bo'lib papkamni ochsam, yo'q.

Darsda o'tiribman-u, yuragim siqilib ketayapti. Cho'ntak esa bo'm-bo'sh. Har kuni maktabga pul bilan kelardim. Aksiga olib bugun shoshib olmabman. Birdan to'g'ridagi partada o'tirgan Jahongirga ko'zim tushib qoldi. Ne ko'z bilan ko'rayki, boyagi qog'ozga o'ralgan narsani olib, bemalol ochib yeb o'tiribdi.

Voy nomard-ey, voy takasaltang-ey. Qanday qilib mening papkamni ochib, qay paytda ulgurdi ekan buni qilishga? – Ha, Jahon, shirin ekanmi, – dedim uni hatto nimaligini ham bilmay turib.

Birdan Jahonning rangi o'zgardi-qoldi. Nima deyishni, nima qilishni ham bilmay, garang bo'lib turibdi.

– Ehtiyot bo'l, tag'in tiqilib qolmasin, – dedim

pichirlab.

Birpas jim o'tirdim-da, sekin oldiga bordim. –Menga qara Jahongir o'rtoq, 400 so'm berib turolmaysanmi? – dedim xuddi hech narsa bo'lmandek. U indamaygina cho'ntagini kavlab gunohini yuvish uchun bo'lsa kerak, pulni olib berdi. Naq 500 so'mlik ekan.

–Rahmat, ertaga qaytaraman, – dedim. Katta tanaffusda darrov maktab bufetiga tushib, 500 so'mning hammasiga bulochkalar olib, o'rtog'imning oldiga shoshdim.

Farhodni topib, ularni uzatdim.

–Senga mana bu omonatni bermiqchiydim...

Ana endi Risolat buvi oldilarida ham, o'z vijdonim oldida ham ko'nglim xotirjam. Jahongirning 500 so'm puli nima bo'ladi deb so'rarsiz? Ikkinchi birovlarining narsasiga ko'z olaytir-maydigan bo'lsin. Axir men yemagan somsaga pul to'lamayman-ku, to'g'rimi?

Manzura UBAYDULLAYEVA.

OMONATGA

uyquga to'yabdi shekilli, choy ham ichmasdan papkasini olib maktabga oshiqibdi. Orqasidan bechora Risolat buvi yugurib chiqsalar, u allaqachon ketib qolgan ekan.

– Voy, bolam, sening isming nimaydi-ya? – dedilar shosha-pisha meni ko'rib buvi.

– Odiljon.

– Ha, Odiljon bolam, mana shuni o'rtog'ingga berib qo'y, xo'pmi, – dedilar qog'ozga qattiq qilib o'ralgan yegulikni tutqazib.

– Xo'p bo'ladi, – deb maktab tomon oshiqdim. Maktabga yetib kelganimda, endigina qo'ng'iroq chalingan ekan. Darrov yugurib sinfga kirib oldim.

Shunday qilib, darsni tugatdik. Endi navbat

XIYONAT QILMA



ONA MEHRI

(Rivoyat)

Bir qishloqda ona va bola yashagan ekan. Ular o'tin terib, so'ng sotib kun kechirisharkan. Ona bolasining dastyor bo'lib qolganidan mamnun bo'larkan.

Kunlarning birida bola o'rmondan o'tin terib qaytayotib, qoyatosh tagida dam olmoqchi bo'libdi. Shu payt baland qoyadan katta tosh dumalab, bolani darhol bosib qolibdi.

Bu mudhish voqeadan xabar topgan qishloq ahli o'sha yerga yetib borishibdi. Lekin harchand urinishmasin, toshni ko'tara olishmabdi.

Shumxabarni eshitgan ona ham shu tomonga yuguribdi. Qarangki, bir necha kishi ko'tara olmagan toshni bir o'zi ko'tarib, irqitib yuboribdi. Buni ko'rgan odamlar hayratdan yoqa ushlashibdi.

Qissadan hissa shuki, ona mehri tog'ni talqon, olamni bo'ston, dushmani yakson qilish qudratiga egadir.

Kamola ERGASH qizi,
Toshkent viloyati, Toshkent tumani.



CHECHAN QIZ

Erta turib chechan qiz,
Uy, ko'chani supurar,
Orasta etib hargiz,
Nonushtaga chaqirar.
Nonushtaga har doim,
Aziz ne'mat – non qo'yar,
Xushtabiat jilmayib,
Qani, olinglar, deyar.
O'zni orasta etib,
So'ng maktabga shoshilar,
A'lo baholar olib,
Hayot zavqini surar.



Shahnoza KARIMOVA,
Toshkent shahridagi,
42-maktabning 9-«D»
sinf o'quvchisi.

Rahim amaki boshliq fermer xo'jaligida yuz chog'li mayda shoxli mollar parvarishlanib, cho'ponning sodiq itlari ularni turli xavf-xatarlardan qo'riqlab keladi. Ayniqsa, Rahim amaki yonida Ko'ktoy bo'lganda, o'zini xavfsiz sezadi.

Bir gal Ko'ktoy g'aflatda qolib, suruvga bo'ri oralabdi.

Bir nechta qo'yni bo'ri bo'g'izlabdi. Bu voqea Ko'ktoyga katta saboq bo'ldi, u endi kechalari uxlamas, yirtqichlarning hidini sezgan zahoti ularning izidan tushib, yer tishlatmasdan qaytmasdi.

Yillar o'tib, Ko'ktoy qarib, otarga uning bolasi Olapar boshchilik qiladigan bo'ldi. Olapar onasi-

ning yonida yurib, tajribasi ancha ortib qolgan, bo'rilar bilan olishganda sabr va aql bilan ish ko'rardi. Shuning uchunmi, undan qo'shni otar itlari ham cho'chib turishardi. Olapar boshqa itlar orasida tartibni saqlar, kichik xatoga yo'l qo'yan itni ham jazolamay qo'ymasdi. Hatto cho'ponlar yo'qligida podani bemalol o'zi boshqara olardi. Cho'ponlar hayron bo'lib: – Siz qanday qilib butun boshli podani Olaparga ishonib topshirib qo'yasiz-a? – deyishganda, Rahim amaki miyig'ida kulib qo'ya qolardi.

Olaparning xislatlarini sanab, adog'iga yetib bo'lmasdi.

Tong pallada u yaylovda yoyilib yurgan podani oldiga tushib, pana-pastqam jarliklarda payt poylab yashirib yotgan yirtqichlardan «tozalab», qo'ylarni tugal saqlardi.



Ustoz ijodi

Qor bo'ralab yog'ayotgan qahraton qish kunlarining birida suruv ortidan yurgan keksa cho'pon sovuqdan qaltirab, hushini yo'qotdi. Otari ikkiga bo'linib ketgan, chor-atrofni qalin tuman qoplayotgandi. Olapar cho'ponning chakmonidan sudray boshladi, kuchi yet-

magach, uvillab, g'ingshiy boshladi. Qo'shni otardan darrov cho'ponlar yetib kelishdi va Rahim amakiga yordam ko'rsatishdi. Oradan bir qancha vaqt o'tib, Rahim amaki nafaqaga chiqadigan bo'ldi. Bundan xabar topgan boshqa cho'pon-cho'liqlar uni kuzatishga chiqishdi. Rahim amaki Olaparni ham o'zi bilan birga olib ketadigan bo'ldi. Uyga borgach, uni go'sht va suyaklar bilan siyladi, ammo

Olapar tutqinlikka ko'nika olmadi. Bir kuni zanjirni uzib, g'oyib bo'ldi.

Rahim amaki uni rosa qidirdi, topolmagach, tushkunlikka tushib qoldi. Qo'ni-qo'shnilar unga harchand tasalli berishmasin, Olaparning bo'sh o'rniga qarab, yuragi ezilaverdi. Bir kuni Rahim amaki otini egarlab, qadrdon bo'lib qolgan yaylovga yo'l oldi. Otarga yaqinlasharkan, yugurib kelayotgan Olaparga ko'zi tushdi. Yuragidagi xavotir va hadik o'rnini xotirjamlik egalladi. Shundan keyin Rahim amaki qo'ychivonlar bilan uchrashish baho-nasida Olaparni ham ko'rish niyatida yaylovga tez-tez kelib turadigan bo'ldi...

Abdulla SAIDOV,

Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
78-maktabning Oliy toifali o'qituvchisi.

– Bolalar bog'i hammi? – shoshilib so'ragandi Farhod.

– Albatta, bolalar bog'i ham. Chunki, biz o'zbeklar eng yaxshi narsalarni bolalarimizga bag'ishlaymiz-ku, – jilmaygandi dadasi. – Axir bizning Qarshi shahrimiz dunyoga qancha-qancha

– Mana shunday katta ishning boshida Yurtboshimiz turibdi, u kishini Olloh yarlaqasin, aziz avliyolar ruhi qo'llasin, – dedi ko'zida yosh bilan Farhodning bobosi O'rol ota Odina masjidini, bu yerda tashkil qilingan «O'zlikni anglash markazi» deb atalgan muzeyni ziyorat

men ham boray.

– Borasan, bolajonim, bu bayramda butun Qashqadaryo xalqi bilan birga yurtboshimiz ham qatnashadi, – nabirasining peshonasidan siladi bobosi. – Bu shunaqa yuqori nufuzli, ulug' bayram, bolam. Momo shahrimiz – Qarshining tug'ilgan kuni...

KO'HINA

QARSHIM –

Farhod Qashqadaryo viloyatining poytaxti Qarshi shahrida yashaydi. U mehmonga borishni, mehmon kutishni yaxshi ko'radi. 6-sinfda o'qiyotganida Toshkentga mehmonga kelgan, bu yerdagi muhtasham binolar, Disneypark, Akvapark kabi g'aroyib bog'larni tomosha qilib, ich-ichidan havas qilgandi.

O'shanda dadasi, hademay Qarshi shahrimizning 2700 yilligini nishonlaymiz, mana ko'rasan, ungacha bizning shahrimizda ham mana shunday osmono'par binolar, ajoyib istirohat bog'lari barpo qilinadi, degandi.

allomalarni yetkazib bergan, bag'rida o'nlab tarixiy obidalar, ko'hna yodgorliklarni asrab-avaylab kelayotgan muazzam va mukarram shahar, bolam. Uning 2700 yoshga kirganini Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga tengdoshligini dunyo tan olgan, xalqaro YUNESKO tashkiloti tasdiqlab bergan. Eh-he, bu bayramga butun dunyodan mehmonlar keladi. Mehmon keladigan uy esa albatta ta'mirlanadi, obodonlashtiriladi.

– Eh, dadajon. Qaniydi, o'sha kunlar tezroq kela qolsa... Dada, mehmonlar bizning litseyimizga ham kelishadimi?

– Kelishadi albatta. Vatanimiz kelajagi kamolga yetayotgan ilm maskanlari – maktab, litseylarda ham bo'lishadi.

Vaqt yugurik. Hash-pash deguncha oradan ikki yil ham o'tib ketdi. Farhod litseyning a'lochi o'quvchisiga aylandi, ona shahri tarixini chuqur o'rgandi. Niyati, Qarshi shahrining 2700 yilligi va Amir Temur bobomizning 670 yoshini nishonlash uchun kelgan yurtdoshlari va xorijlik mehmonlarga ular haqida to'lib-toshib hikoya qilish edi-da. Chindan ham shahar ikki yil ichida tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Endi Qarshi qadimiy tarixiy maskan sifatidagina emas, balki qator inshootlari, milliy va zamonaviy usullarini o'zida birlashtirgan ko'rkam va muhtasham binolari bor navqiron shaharga aylandi.

– Bu bizga Istiqlol bergan baxt, qo'li gul, yuksak salohiyatli xalqimizning mislsiz aql va qudrat sohibi ekanligining isboti, – dedi dadasi quvonch bilan.

Bayramga tayyorgarlikda Farhodning ota-onasi, bobo-buvasi, aka-opasigina emas, butun qarshiliklar o'z iste'dodi, mehnati, mahorati bilan ishtirok etdi. Shu bois bayramda ham barcha shaharliklar xuddi o'z uyida to'y bo'layotgandek quvonch va xursandchilik bilan qatnashdi.

Farhodning nazarida bu tantana nafaqat kishilarning, balki shahardagi tarixiy obidalar, ularning ming yillik tarixlar shohidi bo'lgan koshinlari-yu g'ishtlarining, ko'hna masjid-u madrasalarning ham bayrami bo'ldi.

Chunki el ko'zidan chetda, tashlandiq holda qolib ketgan Odina, Chakar, Qo'rg'oncha, Charmgar masjidlari, Shermuhammad, Sharif Xo'ja, Bekmir, Qilichboy, Xo'ja Abdulaziz madrasalari, Abdullaxon hammomi, Qashqadaryo ko'prigi kabi ko'hna yodgorliklar qayta tamirlanib, obod qilindi, ziyoratgohlarga aylantirildi. Bu esa Farhod va uning tengdoshlari uchun o'zlikni anglash, kimlarning, qanday buyuk bobolarning avlodi ekanliklarini anglashdek faxr tuyg'usini uyg'otgan ulug', bunyodkorlik ishi bo'ldi.

qilib qaytisharkan.

– Biz bolaligimizda bu yer xilvat, vahimali qamoqxona edi. Yonidan o'tishga qo'rqardik. Mana endi qara, bu yerga kirgan odam Qarshimizning, qarshiliklarimizning boy tarixi, madaniyatini bilib

oladi. Dilida bu yurtga, uning xalqiga nisbatan iliq mehr, nur uyg'onadi. Qadimiy Nasaf, hozirgi Qarshi (Qarshi

so'zi – Qasr, saroy ma'nosini anglatadi)da ilm-fan, hunarmandchilik, adabiyot, islom dini va islom falsafasini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan ulug' olimlar ham yetishib chiqqanini ham Mustaqillik sharofati bilan anglab yetdik, bolam.

– Bobojon, juda qisqa vaqt ichida shahrimiz butunlay o'zgarib ketdi-ya. Xuddi ertakdagidek.

– Ha, bolajonim, Mustaqil yurtimizda ertaklar haqiqatga aylanyapti. Bu yurtimiz tinchligidan, xalqimizning ahilligidan. Ahillik bor joyda baraka-xayr bo'ladi. Shahrimizni to'yga tayyorlashda, bunyodkorlik ishlarida butun O'zbekistonimizning qo'li gul quruvchilari qatnashdi. Tarixiy obidalarimizni asl holiga keltirishda Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qo'qon, toshkentlik nozik didli ustalari astoydil mehnat qilishdi.

– Men hozir viloyat hokimligining majlislar zalida o'tkazilgan «Qarshi shahrining jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o'rni» mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyada bo'ldim. Eh, bolajonim, unda qatnashgan chet ellik qadimshunos olimlarning ma'ruzalarida Sharq bilan G'arbni bog'lagan Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan shahrimizning strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgani, me'morchilik san'ati yuksak taraqqiy etgani, olim-u shoirlar maskani bo'lgani haqida shunday hayajonlanib gapirishdiki, xuddi meni maqtashayotgandek g'ururlanib ketdim.

Bayram ishtirokchilari bo'lgan chet ellik olimlar, mehmonlar sport inshootlarini ham borib ko'rishdi. Markaziy Osiyoda yagona suzish havzasi, yengil atletika maneji, 20 ming tomoshabinni bag'riga sig'dira oladigan zamonaviy stadion, ayollar futbol o'ynaydigan «Teolos» sport majmuasi ularga juda manzur bo'ldi.

– Bobojon, Mustaqillik maydonidagi bayramga

G'URURIM,

FAXRIM!


daqiqalarda sohibqiron Amir Temur bobomizning yuksak g'urur va iftixor to'la so'zlarini davom ettirib, shunday degan bo'lardim: kimki bizning kuch-qudratimizni, xalqimizning azmu-shijoatini, qanday buyuk ishlarga qodir ekanini ko'rmoqchi bo'lsa, mana shu Qarshi shahrida, butun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarimizni kelib ko'rsin...

Ishonchim komilki, yosh avlodlarimiz kelgusi nasllar biz boshlagan mana shu ishlarning munosib davomchilari bo'lib, ona yurtimiz, bebaho tariximiz, ulug' ajdodlarimiz, qadimiy shaharlarimiz bilan hamisha g'ururlanib yashaydi. Ulardan kuch va ruhiy quvvat olib, jonajon O'zbekistonimiz dovrug'ini butun olamga tarannum etadi...»

Farhod Yurtboshimizning bu ishonch va umidli so'zlarini dilida takrorlagancha neon chiroqlari porlab, tunda ham kunduzdek charaqlatayotgan shaharni, tengdoshlari, o'rtoqlarining shodon kulgulari yangrayotgan Registon maydoni biqinidagi, ertaklardagidek go'zal bolalar bog'idagi mult-filmxona – ulkan samolyot tomon yo'l olarkan, o'z yurtiga, dunyo ilm-fani, adabiyoti va san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ona shahriga munosib o'g'lon, Yurtboshimiz ishongan salohiyatli yoshlar qatorida bo'lishga ko'kda porlab turgan ulkan ona yulduzga boqib, ont ichdi. U dadil qadam tashlab, bog' ichiga kirib borarkan, qulog'iga bayramda ijro etilayotgan qo'shiq chalindi:

*Ey sen – farzand, bobo izin yursang bosib,
Shu tuproqdan ko'kragingga tumor osib.
Munosib bo'l, bo'l sharafiga munosib,
Rozi bo'lsin sendan buyuk bobolaring...*

Muhabbat HAMIDOVA.



«Istiqlol umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'ulotida an'anaga ko'ra uning sirtqi maktabi a'zolaridan kelgan maktublarni birgalikda o'qib o'tirgandik. Surxondaryolik Yunus ismli boladan kelgan xatning mazmuni o'quvchilarimiz yodiga ko'p narsalarni tushirib yubordi chog'i, bir-birlariga gal bermay, quyidagilarni hikoya qila ketishdi. Men esa qo'limga qalam olib, ularni yozib oldim va e'tiboringizga havola qilishga ahd qildim. Shoyad, sizning ham yodingizga kunlardan bir kuni bo'lib o'tgan qiziqarli voqealar tushib ketsa-yu, bizga yozib yuborsangiz.

Bizning to'garak

Elbek AXROROV,
Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi 27 - maktabning
9 - «A» sinf o'quvchisi:

BIROVNING USTIDAN KULMAGIN ZINHOR...



Yoz kunlarining birida bolalar bilan maydonda futbol o'ynayotgandik. Uzoqdan qo'llarida og'ir yuk bilan kelayotgan amakimga ko'zim tushdi. Yugurib borib, qo'llaridan qovun va uzumni oldim. Ular bilan gaplashib kelayotgandik, bizdan sal oldinroqda ketayotgan bir bolakay qo'lidagi nonini tushirib yubordi. Men ovozimning boricha miriqib kuldim.

Qo'limdagi qovunni osmonga itqitib o'ynab borayotgandim, «paq» etib yerga tushib ketsa bo'ladimi?! Nima qilishimni bilmay, bir yerda yorilib yotgan qovunga, bir amakimga qarab mo'ltillab turaverdim. Shu payt qattiq kulgu ko'tarildi. O'rtoqlarimga qo'shib amakim ham «qah-qah» otib kulib yubordilar. Alam qiladigani, haligi nonini tushirib yuborgan bolakayning ovozi hammanikidan balandroq chiqardi...

«Birovning ustidan kulmagin zinhor, sening ustingdan ham kuluvchilar bor», dedilar amakim kulgudan ko'zlari yoshlanib.

Nigora MIRSODIQOVA,
Poytaxtdagi 315 - maktab o'quvchisi:

«ENDI DOVUCHCHA YEMAYMAN...»

Bu voqea bahor faslida, o'riklar endigina dovuchchalagan mahalda sodir bo'lgandi. Mahallamiz bolalari sho'xlik qilib orqa mahalladan dovuchcha tergani o'tlanishdi. Ularga ergashgan ukamning ortidan «hay-hay»lagancha qolaverdim.

Oradan biroz muddat o'tgach, haligi bolalar og'ir qadamlar tashlab, sudralib kelishardi. Ukamdan, nima gap, deb so'rasam, aftini bujmaytirgancha indamay uyga kirib ketdi. Bo'lgan voqeani bolalarning biri kula-kula, boshqasi xo'mraygancha aytib berishdi.

Xullas, ular orqa mahalladagi kattakon o'rik daraxtining ustiga chiqib, dovuchchaga qo'ni-qo'njilarini to'ldirib tushishibdi. Shu payt xonadon egasi - qari bir otaxon chiqib qolibdi va cho'ntaklaridagi dovuchchalarni o'zlariga yedira boshlabdi. Uyidan kosada suv olib chiqib, har bir dovuchchaning ketidan ularga suv ichiraveribdi.

Shu voqea saboq bo'lib, mahallamiz bolalari dovuchchalar hali pishmay turib daraxtga osilmaydigan, shoxlarini sindirmaydigan bo'lishdi.



Mohina SALIMOVA,
Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 249 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi:

OYDAN TUSHGAN BO'LAKCHA

Bolaligimda kechalari oy nurida sayr qilishni yaxshi ko'rardim. Bunday paytlarda atrof juda go'zal bo'lib ketadida.

Bir kuni opam ikkimiz aylangani chiqdik. O'rindiqda suhbatlashib o'tirgandik, ularning dugonalari kelib qolishdi-yu, gapga tushib ketishdi.

Astagina mo'ralab, osmonga oy ham chiqdi. Atrof nurga to'lib, yanada go'zallashib ketdi. Men oy nuri hamda xonadonlardan tushayotgan chiroq yog'dusida jilvalanib ko'rinayotgan maysazorga termulib qoldim. Diqqat bilan qaragam, maysazorning o'rtasida nimadir tovlanyapti. O'sha nur oy nuridan ham yorqinroq edi. Ajabo, bu nima bo'ldi ekan-a?

Beixtiyor maysazor tomon yo'l oldim. Yaqin borganim sari u ko'zimni ko'proq qamashtira boshladi. Shu payt opamning baqirgan ovozi xayolimni to'zg'itib yubordi.

-Nega maysazorga kirding? Ilon-pilon chaqib olsa, keyin ko'rasan,-deya qo'limdan tortqilab ketdilar. «Ilon» so'zini eshitishim bilan maysazordan o'tilib chiqdim...

Kechasi allamahalgacha uyqum kelmadi. U nima edi? Nega buncha tovlandi ekan-a? Balki biror yarqiroq o'yinchoqdir yo bo'lmasa yonar qo'ng'izdir. Voy, u oyning bir parchasi bo'lsa-ya! Xuddi ertaklardagidek, uzilib tushgan oy parchasini topib olib yamab qo'ysam-u, haqiqiy qahramonga aylansam-a...

Shunday o'y-xayollar bilan qanday uxlab qolganimni ham sezmay qolibman. Ertalab hammadan barvaqt turib maysazorga shoshildim. Kechagi yarqiroq narsani ancha qidirdim, lekin topa olmadim. Shu kuni kechasi yana maysazorga tikildim: u oy nurida bir tekisda jilvalanib, maysalar beozor chayqalib turardi.

Meni hayratga solgan yarqiroq narsa haqidagi o'y menga hali-hamon tinchlik bermaydi. O'shanda sal jur'atliroq bo'lib, borib ko'rsam bo'larkan-da...



Tengdoshlaring ijodi

YULDUZ

Subhidamda porlaydi yulduz,
Atrofida na yo'l bor, na iz.
Do'stlarini yo'qotib qo'yib,
Milt-milt etar bechora yolg'iz.

Dadang qani, yulduzim sening?
Ayang qani, yulduzim sening?
Soat sayin ranging so'lmoqda,
Qirgildimi ildizing sening?

Kel, men bilan do'st bo'la qolgin,
Senga she'rim bitib qolurman.
Namanganda, Chortoq ustida,
Har tong seni kutib qolurman.

Dinora HAMDAMOVA,
Namangan viloyati, Chortoq
tumanidagi
53-maktab o'quvchisi.

AMIR TEMUR BOBOMIZ

Amir Temur bobomiz,
Bo'lgan adolatli shox.
Qo'rqmas, dono, dovyurak,
Yurtga posbon, ulkan tog'.
Jangda g'olib bo'lganlar,
Otda mag'rur yurganlar.
So'zda sobit turganlar,
Buyuk davlat qurganlar.
Temurning avlodlari,
Kuch-quvvatga to'lishar.
Sherdek alp o'g'lonlari,
Ulardek mard bo'lishar.

Shahzoda RIZAYEVA,
Poytaxtdagi «Orom» nomli
maktabning 8-«G» sinf
o'quvchisi.

ILHOM KELGANDA...

She'r yozay deb oldim qalamim,
Quvonchlarim aritar g'amim.
Qanot berar ilhomim jo'shib,
Satrlarga mehrimni qo'shib.

Sirdoshimga aylanar so'zlar,
O'qiganda quvonsin ko'zlar.
Oq qog'ozga hislarim to'kib,
Ona yurtim tuprog'in o'pib.

Yozay deyman yana ko'p she'rlar,
Shoiri bor yurt obod derlar.
Tinchlik kuyi tilagimdadir,
Vatan madhi yuragimdadir.

Usmon NIZOMOV,
Jizzax viloyati, Baxmal
tumanidagi 48-o'rta maktabning
7-«D» sinf o'quvchisi.



USTOZIM

Mening ustozimni hamma taniydi,
Yuzidan nur yog'ar, suxanidan bol.
Ustozga o'xshasam men ham qaniydi,
Ilmda tengsizdir, xulqda barkamol.

Siz ham ustozingiz qo'lidan tuting,
Faqat oldga qarab yuring bolalar.
Va uning sha'niga dostonlar biting,
Poyiga sochingiz gul-u lolalar.

Ustoz va shogirdning kamolin ko'rib,
Odamlar judayam qilsinlar havas.
Istardim: ustozim bir kuni kelib,
«Bu - mening shogirdim!» desalar, shu bas!

RASMLAR

KO'RGAZMASI



Mubinoxon SHOHIDOVA Toshkent shahridagi 34-maktabning 1-sinfida qadam qo'yganiga endigina ikki oy bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, qo'liga kitob bersangiz, hech qiynalmay o'qib beradi. Yana rasmlar ham chizadi. Mittigina tasavvuri bilan yurtimiz chiroyini, tabiat manzarlari, o'rtoqlarining o'yinlari va mehnat faoliyatlarini aks ettirishga harakat qiladi.




Salom, aziz tengdoshlarim! Mening ismim Aziza Jalilova. Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 249-maktabning 4 -«B» sinfida o'qiyman.

Rus sinfida tahsil olsam-da, lotin alifbosidagi kitoblarni, gazeta va jurnallarni sevib o'qiyman. Ayniqsa, «Tong yulduzi»ni yaxshi ko'raman. Chunki u har haftada kelib turadi-da.

Maktabimiz qoshidagi raqs, karate to'garaklariga qatnayman. Darsdan bo'sh vaqtlarimda rasm chizishni yoqtiraman. Chizganlarim ustozim Barno Baxtiyorovnaga ham yoqadimi deyman, har doim «5» baho qo'yadilar.

A'lo bahoga loyiq topilgan rasmlarimdan bir nechtasini gazetaga yubor-yapman. Balki sizga ham ma'qul bo'lar.



BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!



Guloyim TO'LIBOYEVA, Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 206-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi.

TONG
yulduzi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi o'rinbosari),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston
matbuot va axborot
agentligida

022-raqam bilan 2003-

yil 11-dekabrda

ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 16864

Buyurtma N: J 2973

Dizayner va

sahifalovchi:

Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:

Jamila

ERDONOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10